


2022- yilning yanvar-martida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 6 371,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 6,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 3,9 % ga yetdi.




2021-2022- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
I. YAHM, jami	5 370,7	6 371,1	106,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 193,3	6 115,5	106,1
mahsulotlarga sof soliqlar	177,4	255,6	109,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 193,3	6 115,5	106,1
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 114,4	1 262,5	103,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 394,3	1 658,1	107,9
sanoat	959,2	1 154,9	108,5
qurilish	435,1	503,2	106,5
xizmatlar	2 684,6	3 194,9	106,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	502,3	609,2	109,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	353,3	418,2	113,4
boshqa xizmat tarmoqlari	1 829,0	2 167,5	103,9

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 168,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 % ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-martida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 20,6 % ni, sanoat tarmog'i 18,9 % ni, qurilish 8,2 % ni va xizmatlar sohasi 52,3 % ni tashkil qildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	96,0
mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	4,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21,5	20,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,9	27,1
sanoat	18,5	18,9
qurilish	8,4	8,2
xizmatlar	51,6	52,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9,7	10,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,8	6,8
boshqa xizmat tarmoqlari	35,1	35,5

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)





● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 20,6 %), sanoatda – 108,5 % (18,9 %), qurilishda – 106,5 % (8,2 %), xizmatlar sohasida – 106,1 % ni (52,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,0 % (10,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa tarmog'ida 113,4 % (6,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,9 % dan (35,5 %) iborat bo'ldi.

2020-2021- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,8 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,5 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 1,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 3,1 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,0 f.p.) ga ko'paydi.

2022- yil yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 111,7 foizni tashkil etdi. Tarmoqlar bo'yicha deflyator indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar ko'rsatish sohasida – 112,2 % va sanoat tarmog'ida – 111,0 % qayd etildi.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 63,1 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-martida – 65,1 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

